



TIJORAT BANKLARINING PORTFEL INVESTITSİYALARINI KENGAYTIRISH IMKONİYATLARI

Rahimov Jasur To'liqin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

email: Rahimov@gmail.com

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 8 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a5	Ushbu maqolaning maqsadi bank investitsiyalari o'ziga xos iqtisodiy tarkibini tadqiq etish bo'yicha bo'lib, unda mikroiqtisodiy jihatdan investitsiya faoliyati-xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida bank nuqtai nazaridan-to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita daromad olish uchun real va moliyaviy aktivlarni yaratish yoki sotib olishga ma'lum vaqt davomida o'z resurslarini investitsiya qilib, investor sifatida faoliyat yuritadigan yo'nalish sifatida qaralishini ta'minlash uchun amalga oshirish talab etiladigan tadbirlarni aniqlashdan iborat. Ushbu qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida muallif tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan va natijalarga erishilgan. <i>Tijorat banklari, investitsiyalar, bank tizimi, banki resurslari, banklarning investitsion faoliyati, investor, bank sektori, xususiy sektor, moliyaviy vositachilik, qimmatli qog'ozlar, aksiyalar, obligatsiyalar, birlamchi bozor, birlamchi bozor.</i>
KEYWORDS	

Kirish (Introduction/Введение).

Investitsiyalar deganda tijorat banki resurslarini taqsimlashning barcha sohalari sifatida hamda daromad olish maqsadida ma'lum muddatga mablag'larni joylashtirish operatsiyalari tushuniladi. Birinchi holda, investitsiyalar tijorat bankining faol operatsiyalarining butun majmuasini, ikkinchi holatda – uning shoshilinch tarkibiy qismini o'z ichiga oladi.

Bank investitsiyalari o'ziga xos iqtisodiy tarkibga ega bo'lib. Mikroiqtisodiy jihatdan investitsiya faoliyati-xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida bank nuqtai nazaridan-to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita daromad olish uchun real va moliyaviy aktivlarni yaratish yoki sotib olishga ma'lum vaqt davomida o'z resurslarini investitsiya qilib, investor sifatida faoliyat yuritadigan yo'nalish sifatida qaralishi mumkin.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari tomonidan investitsiya faoliyatini amalga oshirmasdan turib, aktiv operatsiyalarni to'g'ri va sifatli amalga oshirish mumkin emas. Bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan tijorat banki nafaqat ularning saqlanishini ta'minlashi va o'z faoliyati uchun muhim bo'lgan daromad olishi, balki diversifikatsiya va tugatish haqida ham g'amxo'rlik qilishi shart.

Tijorat banklari uchun qimmatli qog'ozlarni birlamchi bozorga joylashtirish, shuningdek, aksiyalar qiymatini ikkilamchi taqsimlash an'anaviy hisoblanadi. Banklarning investitsion faoliyati emitentlarga resurslarni jalb qilish uchun qimmatli qog'ozlar chiqarish bo'yicha maslahat berishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu holat mazkur sohani ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq qilishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O.I. Lavrushinning fikricha, bankning investitsiya faoliyati o'z mablag'lari hisobidan yoki qarzga olingan hamda jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar yuqori daromad keltiradi, shuning uchun banklar ularni muddati tugaguncha saqlashadi. Investitsiya portfeli tushunchasi haqida gapirganda, uni foyda olish va xatarlarni diversifikatsiya qilish maqsadida bank tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar to'plami sifatida aniqlash mumkin [1].

V.V.Kovalev, V.V.Ivanov, V.A. Lyalinlarning qarashlaricha, "Investitsiya portfeli-bu belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan investitsiya vositalari to'plami". O'z-o'zidan, har qanday tashkilot tomonidan investitsiya portfeli yaratish jarayoni investitsiya qilish xavfini kamaytirishga yoki rentabellik darajasini oshirishga qaratilgan. SHu bilan birga, portfelning xavfi deyarli har doim bitta vositaga individual investitsiyalar xavfidan past bo'ladi. Portfelni yaratish va boshqarish faoliyati likvidlik va rentabellik o'rtasidagi muvozanatga erishishga qaratilgan [2].

K.Sadvakasov, A.Sagdievlar esa tijorat banklarining investitsiya faoliyati moliyaviy vositachilar sifatida ularning makroiqtisodiy rolini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu imkoniyatda banklar tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga yordam beradi. Bunday sharoitda ularga bo'lgan talab pul shaklida yuzaga keladi. Bundan tashqari, banklar jamg'arma va jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish imkoniyatini beradi [3].

L.P. Krolivetskaya va G.N. Beloglazovalar "Foyda olishga ko'maklashish, investitsiya xizmatlari sohasida doimiy innovatsiyalar va ushbu xizmatlarni yangi segmentlarga kengaytirish, shuningdek, bank uchun raqobatdosh ustunlikka ega bo'lishdir" deya ta'kidlab o'tishgan [4].

O.YU. Dadashvning fikriga ko'ra, "Investitsiya banki modeli sifatida kapital bozorida vositachilik faoliyati jarayonida yuzaga keldigan iqtisodiy munosabatlar tizimini ko'rib chiqadi".

P.F. Kolesov "Investitsiyalar bankini – daromad olish, aktivlarni diversifikatsiya qilish va risklarni kamaytirish hamda likvidlikni saqlash uchun qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar" deb ta'rif keltirgan [5].

H.Markovitsning nazariyasiga ko'ra, yo'l qo'yiladigan xatoliklardan biri shundaki, investor har doim daromadlilikning maqbul darajasi sharoitida kam riskni ta'minlaydigan yoki riskning maqbul darajasi sharoitida yuqori daromadni ta'minlaydigan portfelni ta'minlaydi. Ushbu xatoga yo'l qo'ymaslik uchun investor shunday portfelni tanlashi kerakki, bunda kutilayotgan daromad risk oshmasdan turib oshishi mumkin emas yoki aksincha, risk kutilayotgan daromad kamaymasdan turib kamaymasligi kerak [6].

M. Chekulaevning fikriga ko'ra, jalb qilingan mablag'larning qiymati, ya'ni ularga to'lanadigan foizlarning stavkalari "koll" opsiyonlarning premiyasi miqdoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, bunda ushbu omilning ta'sirini cheklanganligini hisobga olish zarur, ya'ni portfelda opsiyon pozitsiyasining uncha katta bo'lmagan ulushi ham foiz stavkalari darajasini o'zgartira oladi.

Ammo, M. Chekulaev opsiyonlarning premiyasi miqdorini opsiyonlarning standartiga bog'liq ekanligini e'tirof etmagan. Holbuki, yevropa standartidagi opsiyonlarning risk darajasi past bo'lganligi sababli ularning premiyasi darajasi amerika standartidagi opsiyonlarning premiya darajasidan past [7].

"Black-Scholes" modeliga ko'ra:

– "Call" opsiyonning bazaviy aktiviga opsiyonning butun amal qilish muddati davomida dividendlar to'lanmaydi;

– opsiyonni sotib olish yoki sotish bilan bog'liq bo'lgan transaksion chiqimlar mavjud emas;

– qisqa muddatli risksiz foiz stavkasi opsiyonning butun muddati mobaynida o'zgarmasdir;

– qisqa muddatli sotishga cheklovlarisiz ruxsat etiladi va bunda sotuvchi ta'minotsiz sotilgan qimmatli qog'ozning joriy bahodagi summasini birdan va to'liq oladi.

"Black Scholes" modeli opsiyonning bahosini real aniqlash imkonini beradigan olamshumul yangilik sifatida e'tirof etildi va Mayron Shoulz (Myron Samuel Scholes) "Hosilaviy qimmatli qog'ozlar qiymatini aniqlashning yangi usuli"ni kashf etganligi uchun 1997 yilda Nobel mukofotini oldi.

Ammo, so'nggi yillarda "Black Scholes"ning modeliga nisbatan tanqidiy fikrlar paydo bo'lmog'da. Masalan, M. Kiselevning xulosasiga ko'ra, "Black Scholes" modelining quyidagi kamchiliklari mavjud:

– mazkur model opsiyon bitimlari uchun olinadigan komission to'lovlarni hisobga olmaydi;

– opsiyon bo'yicha majburiyatni bajarishni rad etishni istisno etadi;

– opsiyonning butun muddati mobaynida foiz stavkalarini o'zgarmasligini ko'zda tutadi;

– valyutalarning kelgusidagi kurslarini prognoz qilishda tarixiy ma'lumotlardan foydalaniladi;

– qayta baholash natijasida olinadigan daromadning kutilayotgan darajasini hisobga olmaydi [8].

Ye. Jukovning xulosasiga ko'ra, texnik tahlilni amalga oshirishda shunga e'tibor qaratish kerakki, baholar dinamikasiga tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi va birja kursining tebranishi ma'lum qonuniyatlarga bo'ysungan bo'lib, ular barqaror mazmunga ega bo'lishi lozim. Aniqlangan qonuniyatlar asosida birja kursining kelgusidagi tebranishi, boshqa omillarni ta'siri hisobga olingan holda, prognoz qilinadi [9].

J. Sinkining xulosasiga ko'ra, agar tijorat banki ma'lum sabablarga ko'ra, xedjirlashni amalga oshira olmasa, u xedjirlash maqsadida balansdan tashqari usullarni, ya'ni valyutaviy hosilaviy instrumentlarni – fyuchers, forvard, opsiyon va svoplarni qo'llashi mumkin [10].

J. Sinkining ushbu xulosasi O'zbekiston bank amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamiz tijorat banklarida xorijiy valyutalar bilan amalga oshiriladigan forvard va svop operatsiyalari mavjud va shu sababli, banklarda ushbu instrumentlar bilan ishlash tajribasi mavjud; ikkinchidan, mamlakat tijorat banklarida valyuta opsiyonlari va valyuta fyucherslari mavjud emas.

Shuningdek, har qanday tadbirkorlik sub'ekti siyosatga qarab bir necha turdagi investitsiya portfellarini tanlashi mumkin. Yuqoridagi iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilayotgan fikr va mulohazalarda tijorat banklarining investitsiya faoliyati hamda portfel investitsiyalarining iqtisodiy ahamiyati va uni rivojlantirish yo'llari tadqiq etilmagan.

Xususan, investitsiya maqsadlari va sotib olinadigan qimmatli qog'ozlar turlarini aniqlagandan so'ng, banklar investitsiya portfelni boshqarish strategiyasini ishlab chiqadilar. Investitsiya strategiyasini ishlab chiqish asosiy omillarni tahlil qilishga asoslangan: investitsiyalarning rentabelligi, investitsiya vaqti va bu holda yuzaga keladigan xatarlar, ular birgalikda qimmatli qog'ozlar bozorining ma'lum bir vositasiga investitsiyalarning samaradorligini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-

statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Olingan natijalar (Results)

Olib borilgan tahlillar natijasida O'zbekiston tijorat banklari investitsiya portfelni boshqarish ishlab chiqish asosiy omillarni tahlil qilishga asoslangan: investitsiyalarning rentabelligi, investitsiya vaqti va bu holda yuzaga keladigan xatarlar, ular birgalikda qimmatli qog'ozlar bozorining ma'lum bir vositasiga investitsiyalarning samaradorligini belgilashni rivojlanishiga to'siq bo'layotgan holatlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari asoslab berilgan.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, belgilangan vazifalarni bajarish, tijorat banklarining kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik jihatdan yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini yanada kengaytirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha izchil choralar amalga oshirildi.

"Agrobank" ATBning moliyaviy barqarorligini baholovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lgan aktivlar 2023 yilning 1 oktyabr holatiga 62,7 trln. so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 9,6 trln. so'mga yoki 118 foizga oshdi. Jami aktivlar tarkibida daromad keltiradigan aktivlar 54,3 trln. so'mni yoki 87 foizni va daromad keltirmaydigan aktivlar 8,4 mlrd. so'mni yoki 13 foizni tashkil etdi.

Hisobot sanasiga bank kredit qo'yilmalari 53,4 trln. so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 9,6 trln. so'mga (122%) oshdi. Kredit qo'yilmalarining 10,2 trln. so'mi (19,2%) jismoniy shaxslar hamda 43,2 trln. so'mi (80,8%) yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmonidan kelib chiqib bank boshqaruvi tomonidan turli yo'nalishlarda qarorlar qabul qilingan. Quyida ularning asosiylarini sanab o'tamiz:

- ☐ Aktiv amaliyotlar bo'yicha;
- ☐ Passiv amaliyotlar bo'yicha;
- ☐ Kadrlar masalalari bo'yicha;
- ☐ Bank buxgalteriyasi bo'yicha;
- ☐ Bank risklarini boshqarish bo'yicha
- ☐ Informatsion texnologiyalar bo'yicha;
- ☐ Xo'jalik xizmatlari bo'yicha;
- ☐ Boshqa masalalarda bankning kadrlar siyosati.

Kreditlash mahsulotlari sigmentatsiyasi bo'yicha kredit qo'yilmalari qoldig'i quyidagicha (yil boshiga nisbatan o'zgarishi):

- xorijiy valyutada yuridik shaxslarga ajratilgan tijorat kreditlari qoldig'i 16,3 trln. so'm (yil boshiga nisbatan 142 foiz);

- jismoniy shaxslar tijorat kreditlari 3 132 mlrd. so'm (137 foiz).

Shundan kredit maqsadi bo'yicha, iste'mol (yashil energiya) 86 mlrd. so'm (190 foiz), ta'lim 423 mlrd. so'm (191 foiz), avtokredit 73 mlrd. so'm (75 foiz), kredit karta 619 mlrd. so'm (132 foiz), mikroqarz 702 mlrd. so'm (189 foiz), onlayn kredit 254 mlrd. so'm (115 foiz), ipoteka 776 mlrd. so'm (119 foiz), chakana.uz marketpleysi orqali 199 mlrd. so'm (96 foiz);

- tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish uchun kreditlar 2 610 mlrd. so'm (106 foiz);

- qishloq xo'jaligi texnik ta'minoti uchun (PQ-3459) kreditlar 896 mlrd. so'm (89 foiz);

- axoli tadbirkorligi uchun kreditlar 8 363 mlrd. so'm (114 foiz);

- paxta va g'alla yetishtirish uchun kreditlar 16 312 mlrd. so'm (117 foiz);

- yuridik shaxslarga tijorat kreditlar 5 872 mlrd. so'm (109 foiz).

Shuningdek, yo'nalishlar bo'yicha kredit portfelining 47 foizini (25,2 trln. so'm) qishloq xo'jaligi, 23 foizini (12,0 trln. so'm) sanoat tarmog'iga ajratilgan kreditlar tashkil etmoqda. Bank aktivlari tarkibida yuqori likvidliktivlarning salmog'i hisobot sanasida 10,1 foizni yoki 6 317 mlrd. so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 1 280 mlrd. so'mga ko'paygan. Bank likvidligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida Bazel-3 talablari bo'yicha joriy etilgan me'yorlardan likvidlikni qoplash koefitsienti 236 foizni (me'yor min. 100%) hamda sof barqaror moliyalashtirish me'yori 111 foizni (me'yor min. 100%) tashkil etdi.


Maxsus son 2024

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 dekabrda "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4071-sonli Qaroriga hamda 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoniga muvofiq bankning kapitallashuvini oshirish, resurs bazani mustahkamlash, faoliyatni xalqaro me'yorlarga muvofiq tashkil etish choralari ko'rilmogda. Natijada, 2023 yilning 1 oktyabr holatiga bankning umumiy kapitali 9 785 mlrd. so'm, ustav kapitali 8 904 mlrd. so'mni tashkil etib, joriy yil boshiga nisbatan umumiy kapital 280 mlrd. so'm (102,9%) ga (bunda, 350 mlrd. so'm ustav kapital oshirildi, 105 mlrd. so'm joriy yil foydasi va 175 mlrd. so'mi taqsimlanmagan foyda korrektirovkasi hisobidan kamayishi) ko'paydi.

2024 yilga kelib bank aktivlari bo'yicha O'zbekiston banklari orasida beshinchi o'rinni saqlab qolishni rejalashtirmogda.

"Agrobank" ATB o'z faoliyati davomida iqtisodiyotning Real sektorini moliyalashtirish, aholining bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb qilish, mijozlar bazasini kengaytirish, mahsulot taklifini takomillashtirish, jismoniy va raqamli kanallarni rivojlantirish, shuningdek, biznes-reja va bank byudjetining belgilangan asosiy parametrlarini amalga oshirishga e'tibor qaratadi.

Kredit portfelining rejalashtirilgan sezilarli o'sishi va biznes samaradorligini oshirish tufayli bank foydani 2024 yilgacha 921 milliard so'mgacha oshirishni rejalashtirmogda.



1-rasm. "Agrobank" ATB foydasini 2024 yilgacha oshirish prognozi¹


Bank shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni faol rivojlantirmogda va shu kabi banklarning xorijdagi eng yaxshi amaliyotlarini joriy etishga qaratilgan.

Jahon amaliyotida tijorat banklari investitsiya sohasida yuqori tajribaga ega. Shuning uchun ham jahon amaliyotida erishilgan yutuqlarga asoslangan holda investitsiya faoliyatining asosiy maqsadlari, vazifalari, mollari, strategiyasi va taktikasini hisobga olgan holda tijorat banklarining investitsiya siyosatini amalga oshirish bo'yicha "investitsiyaning oltin qoidasi" ishlab chiqilgan. Unga ko'ra "Qimmatli qog'ozlardan keladigan daromad har doim investor shu daromadni olish uchun to'qnash keladigan risk darajasiga proporsionaldir".

"Agrobank" ATB bank mintaqalardagi davlat dasturlari ishtirokchilari bo'lgan mijozlarning hozirgi keng bazasi uchun xizmatlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Bank ushbu mijozlarga davlat dasturlari orqali ham kreditlar, ham o'zaro savdo orqali qo'shimcha mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishni rejalashtirmogda. Keng filiallar tarmog'i va faol rivojlanayotgan masofaviy kanallar orqali bank boshqa banklarning vakolatxonalari bo'lmagan chekka hududlarda aholiga bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

2024-yilgacha bo'lgan davrda bank 51 trillion so'mgacha bo'lgan kredit portfelini oshirish niyatida.(2-rasm)




2-rasm. "Agrobank" ATB kredit portfeli² (mlrd. so'm)

Mijozlarning mablag'larini jalb qilish nuqtai nazaridan bankning strategiyasi jozibador shartlarga ega bo'lgan omonatlarni ishlab chiqish,

so'tishni faollashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni oshirish orqali banking resurs bazasidagi depozitlar ulushini oshirishga qaratilgan.

2024-yil oxiriga kelib jami fondlash qariyb 52 trillion so'mgacha oshadi, bunda korporativ va chakana depozit portfellarining nisbiy ulushi saqlanib qoladi. (3-rasm)

Investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil etish ularning samaradorligi ko'rsatkichlariga baho berishda asosiy o'rin egallaydi. Moliyaviy tahlil investitsion loyihani amalga oshirishdan keladigan samara, uning har bir ishtirokchisi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, loyihani amalga oshirishda erishilishi lozim bo'lgan natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatlarini ochib beradi. Bozor islohotlarigacha bo'lgan davrda, ya'ni markazlashtirilgan rejalashtirish tizimi amal qilgan paytda kapital qo'yilmalarning samaradorligini baholashda tarmoq me'yor koeffitsienti yordamida taqqoslama iqtisodiy samaradorlikni hisoblash yo'li bilan absolyut va nisbiy ko'rinishlardagi ularning qoplanishini hisoblash usullari yotardi.



3-rasm. "Agrobank" ATB tomonidan jalb qilingan mablag'lar³, (mlrd so'm)

Investitsiyalash variantlarini tanlashda ham ushbu uslublarning o'ziga xos o'rni bor edi, lekin ular qattiq dogmatik andozalar tizimi bilan chegaralangandi. Shuning uchun ushbu uslublarda zarur bo'lgan ko'rsatkichlar yo'q edi, ya'ni bular: bozor iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi noaniqliklar va risklar, inflyatsiya sharoitidagi real va nominal qiymatlarini baholash va shu kabilardir.[14]

Shuningdek kapital quyilmalarining samaradorligini aniqlashda, baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va ayniqsa, marketing jihatlarini hamda loyiha ishtirokchilarining manfaatlarini etarlicha hisobga olinmas edi, pul oqimi tahlili, balans tahlili, amortizatsiya hisobi va boshqalarga bo'lgan e'tibor uning uchun xos emasdi. Yuqoridagi holatlarni hisobga olmaslik ma'muriy boshqarish davriga mos keladi, chunki unda davlat mulki hukmron hisoblanar va bu borada undan boshqa manfaatdorlar yo'q edi.

Bundan tashqari, har bir loyiha davlat tomonidan belgilangan dasturlar orqali moliyalashtirilgan, loyihalarning samaradorligi, kreditning qaytarilishi kabi omillar unchalik ahamiyat kasb etmasdi. Shuningdek xususiy tadbirkorlikning mavjud bo'lmaganligi, insonlarni mustaqil bir ish qilishlariga va faoliyat olib borishlariga yo'l bermas edi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsion loyiha, eng avvalo, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda ko'pchilikning manfaatlarini e'tiborga olish bilan amalga oshirilishi lozim. Hozirgi iqtisodiy vaziyat, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi vazifalar, investitsion loyihalarni amalga oshirishda bir necha manfaatlarning o'zaro to'qnash kelishi jahon iqtisodiyotidagi eng etuk tajribalarni O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish barcha sohalaridagi kabi investitsion loyihalar tahlilida ham uslubiy o'zgarishlarga erishishni taqozo etdi va uni muhim vazifa sifatida qo'ydi.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida barqarorsizlik davom etayotgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uning raqobatbardoshlik darajasini oshirish muhim masala hisoblanadi.

Buning uchun iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, sa'noat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash jarayonlarini tezlashtirish lozim.

Ushbu masalalarni ijobiy hal qilish uchun mamlakatimizda asosiy investitsiya instituti hisoblanadigan tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish zarur.

Banklarning investitsiya faoliyati – bu bank investor sifatida daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va tashkil qilishi uchun mablag'larni joylashtirishi bilan bog'liq faoliyatidir. Banklarning investitsiya faoliyatini boshqa investorlar faoliyatidan farqli tomoni shundaki, ular investitsiyani jalb qilingan mablag'lar evaziga amalga oshiradilar.

Shuning uchun ham bank bir tomondan investor sifatida bozorda paydo bo'lsa, boshqa tomondan esa u qarzdordir. Ushbu holat banklar uchun likvidlikni muhim masala qilib qo'yadi, ular aktivlar va passivlarining muddati, hajmi va foiz stavkalari bo'yicha mutanosib boshqarishni taqozo etadi.

Natijalar interpretatsiyasi (Discussion/Обсуждение).

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish davomida quyidagi savollar paydo bo'ldi va ularga quyidagicha javoblar shakllandi: O'zbekistonda banklar rentabellik va investitsiya xavfi o'rtasidagi optimal muvozanatni aniqlash muammosi? Ba'zi investitsiyalar kamroq likvidli bo'lishi mumkin, bu esa aktivlarni tezda sotish zarur bo'lganda banklar uchun qanday muammo tug'diradi? Investitsiya portfelining etarli darajada diversifikatsiya qilinmasligi bankning xavf darajasini oshirishi va potentsial yo'qotishlardan kamaytirish uchun nimalar qilish kerak? Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida ushbu savollarga asosli javoblar shakllantirildi.

References:

1. O.I. Lavrushin Liquidity risk, liquidity creation, and financial fragility: a theory of banking J. Polit. Econ., 109 (2) (2001), pp. 287-327
2. V.V.Kovalev, V.V.Ivanov, V.A. Lyalin Competition and bank liquidity creation J. Financ. Quantit. Anal., 54 (2) (2019), pp. 513-538
3. K.Sadvakasov, A.Sagdiev Bank regulation, supervision and monitoring enhance or impede bank efficiency? J. Bank. Finance, 37 (8) (2013), pp. 2879-2892
4. P.F. Kolesov Bank liquidity creation and real economic output J. Bank. Finance, 81 (2017), pp. 1-19, 10.1016/j.jbankfin. 2017.04.005
5. O.Yu. Dadashov. Reghezza Centralised or decentralised banking supervision? Evidence from European banks J. Int. Money Finance, 110 (2021), p. 102264.
6. Markowitz, H. 'Portfolio Selection/ The Journal of Finance, 1952 – №7. – P. 77-91.
7. Чекулаев М. Загадки и тайны опционной торговли. М.: ИК Аналитика, 2001. – С. 10.
8. Киселев М.В. Опционы как способ мотивации менеджеров фирмы//Вестник СГСЭУ. 2008. № 2 (21). – С. 46-51.
9. Жуков Е. Ф.. Рынок ценных бумаг: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям. — 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА. - 567 с.
10. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 807.
11. <https://agrobank.uz/uz/about/docs>
12. Баратова, Д. (2024). Хаёт суғуртасининг аҳоли ижтимоий ҳимоясини таъминлашдаги ўрни. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 14–16. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/111..>

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni diversifikatsiya qilish va amalga oshirish, tijorat banklarining portfel investitsiyalarini kengaytirishni rivojlantirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning roli va ahamiyatini yanada oshirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, xususan, tijorat banklarining portfel investitsiyalarini kengaytirishning nazariy va iqtisodiy asoslarini o'rganishni takomillashtirishga qaratilgan bilimlarni rivojlantirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan oqilona foydalanish hamda ushbu sohani ilmiy jihatdan doimiy ravishda o'rganish talab etiladi.